

Ona tilining jozibasi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/ona-tilining-jozibasi>

Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig'laydi, ammo ularga har xil alla aytiladi deyishadi. Haq gap! Butun tabiatda – hayvonotda, nabototda xilma-xillikni, betakrorlikni ko'rishimiz mumkin. Ammo butun yer yuzidagi barcha insonlar ko'rinish jihatdan deyarli bir xil. Ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan asosiy jihat – bu ularning turli tillarda so'zlashishidir. Misol uchun, xitoyliklar, yaponlar, koreyslarni tashqi ko'rinishiga qarab farqlash qiyindir, ammo ularning so'zlashishini eshitib, qaysi millat vakili ekanligini bilib olish mumkin. Ona tili – bu har bir millatning millat sifatida namoyon bo'lishini belgilaydigan asosiy omildir. Tilidan ayrilgan millatda boshqa hech narsa qolmaydi. Mana shuning uchun ham jonkuyar ota-bobolarimiz til birligi va sofligi uchun kurash olib borganlar, butun hayotlarini bag'ishlaganlar.

Ona tilining jozibasi turli adabiy asarlarda, xalq og'zaki ijodida to'la namoyon bo'lishi bor gap! Tilning butun kuch-qudratini namoyon qilishda, uni butun dunyoga tarannum etishda ulkan so'z san'atkorlari – shoir va yozuvchilarning ijodi beqiyos o'rin tutadi. Meni har safar xayratlantiradigan jihat ona tilimizning o'ta boyligi va go'zalligidir. Misol tariqasida Hazrat Navoiyning mana bu baytini olaylik:

El ichra o'tirmoq yuqoriroqdin,

El ichra o'tirmoq yuqoriroq, bil.

Ko'rib turganingizdek, birgina tovush almashishi natijasida mutlaqo yangi va o'zgacha ma'no hosil bo'lmoqda. Qizig'i, bu kabi misollarni minglab topish mumkin.

Butun hayot yo'li, yozgan asarlari, betakror g'azallari turkiy tilning bebaholigini ko'p marta isbot qilib bergan bobomizning "Muhokamat-ul lug'atayn" nomli ikki til muhokamasiga bag'ishlangan asarining yozilishi ham hech qanday bahslarga o'rin qoldirmaydigan muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarni qo'limga olganimda ona tilimga hurmatim yanada oshgan. Birgina "yig'lamoq" fe'lining har xil darajalari borligini ko'rib taajjublanganman. "Iglanmoq", "igranmak", "singramoq", "ingranmoq" va hokozo. Dunyo tili sifatida e'tirof etiladigan ingliz tilida esa birgina "to cry" so'zi yig'lash ma'nosini beradi.

Har qanday til, u qanchalik go'zal bo'lmasin, xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi, obro-e'tibori va uning yashab qolishi, albatta shu tilda so'zlashadigan millat vakillariga bog'liq. Tilning bahaybat kitoblarda savlat to'kib turishi uni o'lik tilga aylanishdan saqlab qololmaydi. Ha! Dunyoda o'lik tillar ham bor. Bu tillarda hech kim miriqib suhbat qurmaydi, dil izhori qilmaydi. Bu qanday achinarli holat. Ammo bir muddat xotirjamlikka berilish, o'z ona tilini sevmalik va hurmat qilmaslik, uni rivojlantirmaslik tilni shu holga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham Dog'istonning buyuk shoiri Rasul Hamzatov kuyunchaklik bilan shunday yozgan bo'lsa kerak:

Agar ona tilim erta yo'qolsa,

Men bugun o'lishga bo'lurman rizo.

Bugun ona tilimizning qadrini yanada oshirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi o'zbek tilining qaddi yanada ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi islohotlar ona tilimizning rivojlanishi uchun, albatta, o'z hissasini qo'shadi. Ammo har birimiz o'z ona tilimizga hurmat bilan qarasaq, uni bor go'zalligi, latofati bilan avlodlarga yetkiza olsak, shundagini o'zbek tili asrlar

davomida yashab qoladi. Turli sohadagi ixtirolar, xalqaro doiralarda qiziqish uyg'otadigan dasturlar, qurilmalar yaratish ham o'zbek tilining jahonga bo'y cho'zishiga xizmat qiladi. Momolarimiz, bobolarimiz so'zlashgan til qanchalar go'zal va mukammal. Mana shu tilning go'zalligini va mukammalligini, eng afzal ekanligini his qilish har birimizga nasib qilsin!

Kumush Abdusalomova